

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

MOVAROUNNAHR VA XUROSON FIQH AN'ANALARINING
HAKIM TERMIZIYGA TA'SIRI**Ibrohim Usmonov***doktorant, tarix fanlari nomzodi, dotsent.**O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ahl ar-ra'y, ahl al-hadis, Abu Hanifa, Imom Shofei, Ahmad ibn Hanbal, Xuroson, Movarounnahr, Hakim Termiziy, qiyos, fiqh, muhaddis, harfiy yondashuv, moturidiya aqidasi.

Annotatsiya: Maqolada ahl ar-ra'y va ahl al-hadis yo'nalishlarining shakllanish jarayonlari, unga sabab bo'lgan omillar manbalar asosida tahlil qilinadi. Xususan Shahrisoniyning "al-Milal va-n-nihal" asari orqali mazkur ikki yo'nalishning tavsifi keltiriladi. Maqolada ahl al-hadis va ahl ar-ra'y o'rtasidagi shariat manbalariga yondashuvdagi farq konservator va liberallar o'rtasidagi farq kabi emas, balki Qur'on va sunnani hayotga tatbiq etishda ikki xil yondashuvning ko'rinishi ekanligi ochib beriladi. Bunda ahl ar-ra'y Qur'on va sunnaga murojaat qilishda ko'proq aqloniy yo'lni tutgan bo'lsalar, ahl al-hadis esa ko'proq harfiy yondashuvni ustun qo'ygan edi.

Keng tarqalgan fikrga ko'ra, ulamolar ahl ar-ra'yga hanafiyligni ahl al-hadisga qolgan uch mazhab: shofeiyligi, molikiyligi va hanbaliyligni kiritadilar. Islom tarixida ahli sunnaning to'rt fiqhiy mazhabidan boshqa mazhablar ham bo'lgan, ammo ular keng tarqala olmagan: Avzo'iy, Jaririy (ibn Jarir Tabariy), Zohiriy yoki Dovudiy va boshqalar.

Muallif hanafiy mazhabining yirik markazlari sifatida Iroq, Xuroson va Movarounnahr hanafiyligi ko'zga tashlana boshlashini yoritib berib, hanafiyligining mintaqada mavqei balandligining bir necha sabablarini qayd etadi: hukmron tabaqalarning qo'llab-quvvatlashi, mazhabning yangi voqe'likka tez moslasha olishi, qozilik vazifalariga aksar holatlarda asosan hanafiylarning tayinlanishi, urf-odatlarining hukm chiqarishda e'tiborga olinishi va boshqa. Xuroson va Movarounnahrda IX-X asrlarda hanafiyligidan boshqa mazhablar keng tarqala olmagan maqolada ochib berilgan.

Mintaqada hanafiylik aqidasi tarqalishi natijasida Samarqandda Imom Moturidiy moturidiya aqidasi tamoyillarini ishlab chiqqan. Hakim Termiziy ham hanafiylik muhitida voyaga yetgan, o'z muhitida ahl ar-ra'y va ahl al-hadis munosabatlariga guvoh bo'lgan. O'z asarlarida ularga nisbatan mustaqil pozitsiyasini shakllantirgan.

Hakim Termiziy ahl ar-ra'y uslubiyatidagi qiyosning ahamiyatini ta'kidlagan holda, uni to'g'ri qo'llash bo'yicha o'z talqinini taqdim etgan. Ahl al-hadisni esa harfiy yondashuvdan chetlashish, diniy matnlarning hikmati va murodini anglash orqali hukm chiqarishga chaqirgan. Hakim Termiziy ahl al-hadis va ahl al-ra'yning hadislarga munosabatidagi farqqa ham ishora qilgan: rivoyat qilish maqsadi va fiqhiy hukm chiqarish maqsadlarini to'g'ri amalga oshirish bo'yicha o'z xulosalarini bergan.

THE INFLUENCE OF MAWERANNAHR AND KHURASAN ISLAMIC JURISPRUDENCE TRADITIONS ON AL-HAKIM AT-TIRMIDHI

Ibrohim Usmonov

postdoctoral researcher

the Academy of Sciences, the Institute of

Oriental Studies named after Abu Rayhan Biruni

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ahl al-Ra'y (supporters of independent judgment), Ahl al-Hadith (supporters of tradition), Abu Hanifa, Imam Shafi'i, Ahmad ibn Hanbal, Khorasan, Mawerannahr, al-Hakim at-Tirmidhi, qiyas (analogy), fiqh (Islamic jurisprudence), muhaddith (Hadith scholar), literal approach, al-Maturidi theology.

Abstract: The article analyzes the processes of the emergence of the Ahl ar-Ra'y and Ahl al-Hadith schools of thought, as well as the factors that influenced their formation. In particular, in the work of ash-Shahristani "Al-Milal va-n-nihal" a short description of these two schools is given. The article reveals that the difference in the approach to the sources of Sharia between Ahl al-Hadith and Ahl ar-Ra'y is not like the difference between conservatives and liberals, but rather a manifestation of two different approaches to the implementation of the provisions of the Koran and the Sunnah. In this regard, Ahl al-Ra'y took a more intellectual approach to the Qur'an and Sunnah, while Ahl al-Hadith preferred a more literal approach.

According to popular belief, scholars include the Hanafi madhhab in Ahl ar-Ra'y and three other madhhabs – Shafi'i, Maliki and Hanbali in Ahl al-Hadith. In the history of Islam, there were schools (madhhabs) in addition to the four schools of jurisprudence of Ahl al-Sunnah, but they joined other schools and gradually disappeared from the scene of the History: Avzai, Jariri (ibn Jarir Tabari), Zahiri or Dawoodi and others.

The author sheds light on the emergence of large centers of the Hanafi madhhab in Iraq, Khorasan and Mawerannahr and notes several reasons for the high position of the Hanafi madhhab in the region: ruling classes support, the ability of the madhhab to

quickly adapt to new realities, the appointment of judges in most cases from among the Hanafi faqihs, consideration of traditions in making judgments, etc. The article reveals that madhhabs, except for Hanafism, could not spread widely in Khorasan and Mawerannahr in the 9th-10th centuries. As a result of the establishment of the Hanafi faith in the region, theologian from Samarkand Imam al-Maturidi developed the principles of Maturidi theology. Al-Hakim at-Tirmidhi grew up in the environment of Hanafism, he witnessed the friction between Ahl al-Ra'y and Ahl al-Hadith. In his works he formed an independent position in relation to both of them.

Al-Hakim at-Tirmidhi emphasized the importance of the qiyas (analogy) methodology fruitfully used mainly by the representatives of Ahl al-Ra'y and presented his interpretation of the correct application of this methodology. He urged Ahl al-Hadith to avoid taking a literal approach and to make judgments by delving into the meaning of religious texts. Al-Hakim at-Tirmidhi also outlined in his writings the difference between the positions of Ahl al-Hadith and Ahl ar-Ra'y schools to hadith: he gave his conclusions regarding the purpose of narrations and the correct development of judgments.

ВЛИЯНИЕ ТРАДИЦИЙ ИСЛАМСКОЙ ЮРИСПРУДЕНЦИИ МАВЕРАННАХРА И ХОРАСАНА НА ХАКИМА ТИРМИЗИ

Ибрагим Усманов

Докторант, кандидат исторических наук, доцент.

Академия наук Республики Узбекистан

Институт востоковедения имени Абу Райхана Беруни

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: ахл ар-ра'й (сторонники независимого суждения), ахл ал-хадис (сторонники предания), Абу Ханифа, имам Шафии, Ахмад ибн Ханбал, Хорасан, Мавераннахр, Хаким Тирмизи, кийас (аналогия), фикх (исламская юриспруденция), мухаддис, буквальный подход, матуридийская теология.

Аннотация: В статье на основе источников анализируются процессы возникновения направлений Ахл ар-Ра'й и Ахл ал-Хадис, а также факторы повлиявшие на их формирование. В частности, в работе Шахристани «Аль-Милал ва-н-нихал» даётся короткое описание этих двух направлений. В статье раскрывается, что разница в подходе к источникам шариата между Ахл ал-Хадис и Ахл ар- Ра'й является не как разница между консерваторами и либералами, а скорее проявлением двух разных подходов к реализации положений Корана и Сунны. В этом отношении Ахл ар- Ра'й использовал более интеллектуальный подход к Корану и Сунне, в то время как Ахл ал-Хадис предпочитал более буквальный подход.

Согласно распространенному мнению, ученые включают ханафитов в Ахл ар-Ра'й и три других мазхаба в Ахл ал-Хадис: шафиитов, маликитов и ханбалитов. В истории ислама были школы (мазхабы) помимо четырех школ юриспруденции Ахл ас-Сунны, но они не получили широкого распространения: Авзай, Джарири (ибн Джарир Табари),

Захири или Давуди и другие.

Автор проливает свет на возникновение в Ираке, Хорасане и Моваруннахре крупных центров ханафитского мазхаба и отмечает несколько причин высокого положения ханафитов в регионе: поддержка правящих классов, способность мазхаба к быстрой адаптации к новым реалиям, назначение судей в большинстве случаев из среды ханафитов, учет обычаев и традиций при вынесении суждений и т.д. В статье выявляется, что мазхабы, кроме ханафизма, не смогли широко распространиться в Хорасане и Мавераннахре в IX-X веках. В результате утверждения в регионе ханафитской веры учёный-теолог Имам Мотуриди из Самарканда разработал принципы мотуридийского богословия. Хахим Тирмизи вырос в среде ханафизма, он был свидетелем трений между Ахл ар-Ра'й и Ахл ал-Хадис. Он в своих произведениях сформировал самостоятельную позицию по отношению к обоим из них.

Хахим Тирмизи подчеркивал важность методологии “кияс” (аналогия) плодотворно используемой в основном представителями Ахл ар-Ра'й и представил свою интерпретацию правильного применения данной методологии. Он призвал Ахл ал-Хадис избегать буквального подхода и выносить суждения, вникая в смысл религиозных текстов. Хахим Тирмизи также изложил в своих трудах разницу между позициями Ахл ал-Хадис и Ахл ар-Ра'й к хадисам: он дал свои выводы относительно цели повествований и правильной выработки суждений.

KIRISH

Sahobiylarning turli diyorlarga tarqalib ketishi oqibatida turli o'lkalarda ularning uslubiyati asosida ilmiy harakatlar yuzaga keldi. Ushbu uslubiyatlar turli bo'lsada, ular asosiy ikki yo'nalish bo'yicha farqlanar edi: ahl ar-ra'y va ahl al-hadis.

Shahristoniy “al-Milal va-n-nihal” asarida musulmon ummatining mujtahidlari mazkur ikki yo'nalishga mansub ekanini ta'kidlab, har birini alohida tavsiflaydi: “as'hob al-hadis – hijozliklar bo'lib, Molik ibn Anas, Muhammad ibn Idris Shofeiy, Sufyon Savriy, Ahmad ibn Hanbal, Dovud ibn Ali ibn Muhammad Isfahoniyning izdoshlaridir. “As'hob al-hadis” deb atalishlariga sabab – hadislarni to'plash, xabarlarni rivoyat qilish, hukmlarni nasslar (Qur'on va hadis)ga barpo qilishga alohida e'tibor qilishlaridan. Ular xabar yoki asar topa olmasalar na ochiq va na maxfiy qiyosga murojaat qiladilar”¹. “Ra'y sohiblari – iroqliklar bo'lib, Abu Hanifa izdoshlaridir... Ularning “as'hob ar-ra'y” deb atalishlariga sabab – qiyosga, hukmlardan olinadigan ma'nolarga ko'p ahamiyat berishlari, masalalarni shuning ustiga barpo qilishlaridandir”².

Quyidagi qisqacha tavsif bizga o'sha davrda ahl al-hadis va ahl ar-ra'y o'rtasidagi hukm chiqarish uslublaridagi farqlarni ma'lum bir darajada anglashimizga yordam beradi: “Ahl al-hadislar harfiy shariat vakillaridir, ular biror masala yechimini Qur'on va sunnadan topa olmasalar, o'sha masalada fatvo

¹ Shahristoniy M. Al-Milal va-n-nihal. – Bayrut: Dar al-ma'rifa, 1993. –B. 243.

² Shahristoniy M. Al-Milal va-n-nihal. – Bayrut: Dar al-ma'rifa, 1993. –B. 246.

chiqarmay jim qoladilar. Ahl ar-ra'y esa shariat asoslarini anglab yetdilar, Qur'on va sunnada muayyan masala yechimi topilmasa, ular qiyosdan istifoda etdilar"³.

Ahl ar-ra'yning Iroqda tarqalishiga quyidagi omillar xizmat qildi:

- Umar ibn Xattobning izdoshi hisoblangan buyuk sahobiy Abdulloh ibn Mas'udning Kufa fihiy maktabiga rahbarlik qilgani, Ali ibn Abu Tolib xalifalik davrida uning ko'plab ijti­hodlariga iroqliklar guvoh bo'lgani;

- Hijozga nisbatan Iroqda sahobiy­lar sonining ozligi va natijada hadislar rivoyati ham kamligi;

- Iroqning Fors mamlakati bilan yaqin aloqalari tufayli turli juz'iy masalalarning ko'p kelib chiqishi natijasida ra'yni ko'p ishlatish taqozo etilishi;

- Iroqda xorijiy­lar va shialar o'z yo'lini tasdiqlash maqsadida ko'p to'qima hadislar rivoyat qilishi oqibatida hadis rivoyat qilinishida o'ta ehtiyotkorlik qilish va ko'proq ra'yga tayanish⁴.

Ahl al-hadisning dastlab Hijozda tarqalishi quyidagi sabablarga borib tarqaladi:

- hadislar­ga ko'proq tayanish, ra'y va qiyosdan saqlanish (faqat zaruriyat holatlarda murojaat qilish), Kitob yoki sunnatda masala topilmasa fatvo berishdan tiyilish;

- Hijozda hadis va asarlarning ko'pligi tufayli ra'yni ishlatishga ehtiyoj kamligi;

- Hijoz hayotining soddaligi, Payg'ambar (a.s.) davridagi hayot tarzidan kam o'zgargani bois yangi masalalar kam ekani;

- islom diyorlaridagi fitna markazlaridan yiroqligi, xususan Iroqda sodir bo'lgan fojialardan uzoqda bo'lgani⁵.

Shahristoniy ikki toifa o'rtasida furu' masalalarida ixtilof, munozaralar bor ekani, bu bo'yicha asarlar yozilgani, lekin o'rtada kufr va zalolatda ayblash bo'lmasligi va har bir taraf o'z ijti­hodida to'g'ri ekanini qayd etadi⁶.

Ahl al-hadis va ahl ar-ra'yni boshini qovushtirishga harakatlar bo'lgani haqida "Sunani Abu Dovud"ga yozilgan sharh – "Maolim as-sunan" asari muqaddimasida muallif Imom Abu Sulaymon Xattobiy (vaf. 998-y.) shunday degan: "Zamonamizning ahli ilmlari ikki guruh – ikki jamoaga ajralishgan: hadis as'hoblari va fiqh ahllari. Ehtiyojimiz tushishi borasida bular bir-biridan farq qilmaydi. Maqsad va muddaoga yetish uchun ularning birortasidan voz kechib bo'lmaydi. Chunki hadis poydevor, fiqh uning ustiga qurilgan binodir. Poydevorsiz bino qulaydi, poydevor ustida imorat bo'lmasa, u xarobadir"⁷.

Ahl al-hadis va ahl ar-ra'y o'rtasidagi farq shariat manbalariga yondashuvda an'anachi (konservator)lar va liberallar o'rtasidagi farq kabi emas, balki ahl ar-ra'y Qur'on va sunnaga murojaat qilishda ko'proq aqloniy yo'lni tutgan bo'lsalar, ahl al-hadis esa ko'proq harfiy yondashuvni ustun qo'ygan edi. Ya'ni bu Qur'on va sunnani hayotga tatbiq etishda ikki xil yondashuvning ko'rinishidir..

TADQIQOTNING USULLARI

Manbalarda "ahl ar-ra'y" va "ahl al-hadis" o'rtasini ajratuvchi chiziq qaysi mazhablar orasidan o'tishi bo'yicha turli mulohazalar bor. Ammo eng keng tarqalgan fikrga ko'ra, ulamolar ahl ar-ra'yga hanafiylikni ahl al-hadisga qolgan uch mazhabni kiritadilar. Hakim Termiziy ham "ahl ar-ra'y ulamolari" deb Abu Hanifa, Abu Yusuf, Zufar, Hasan ibn Ziyod Lu'luiy, Muhammad Shayboniylarni qayd etgan⁸.

³ Qarang: Muhammad Xudariy Bek. Tarix at-tashri' al-islomiy. – Bayrut: Dor al-qalam, 1983. – B. 144-149.

⁴ Manno' Qatton. Tarix at-tashri' al-islamiy. – Qohira: Maktaba vahba, (nashr yili ko'rsatilmagan). – B.290.

⁵ Manno' Qatton. Tarix at-tashri' al-islamiy. – Qohira: Maktaba vahba, (nashr yili ko'rsatilmagan). – B.293.

⁶ Qarang: Shahristoniy M. Al-Milal va-n-nihal. – Bayrut: Dar al-ma'rifa, 1993. –B. 246.

⁷ Avvoma M. Faqih imomlar ixtilofida hadisi sharifning o'rni / tarj. Muhammad Sodiq.M.Yu. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2018. – B.89.

⁸ Qarang: Hakim Termiziy. Al-Masoil al-maknuna / M.Juyushiy nashri. – Qohira: Dor at-turos al-arabiy, 1980. – B.46

Islom tarixida ahli sunnaning to'rt fiqhiy mazhabidan boshqa mazhablar ham bo'lgan, ammo ular keng tarqala olmagan: Avzo'iy, Jaririy (ibn Jarir Tabariy), Zohiriy yoki Dovudiy va boshqa. Fiqhiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatyaptiki, yetakchi faqihlar dastlabki vaqtlarda ra'ydan ko'p foydalanganlar. Ahl ar-ra'y va ahl al-hadis o'rtasida dastlabki vaqtda uyg'unlik bo'lganini Ahmad ibn Hanbalning bir muddat Abu Yusuf huzurida ta'lim olgani bilan dalillash mumkin. Ular o'rtasidagi farqlanishning kattalashuvi "Qur'onning maxluqligi" masalasi yuzaga chiqishi bilan sodir bo'ldi. IX asrda ayrim faqihlar, ayniqsa shofeiylar ahl ar-ra'y va ahl al-hadis o'rtasini muvofiqlashtirishga ko'p harakat qildilar⁹. Qiyos masalasi ham kelishmovchilik mavzusiga aylangan edi. Ammo uzoq tortishuvlardan keyin "qiyos" uslubi aynan shu davrda shariat manbalaridan biri deb e'tirof etilishi katta g'alaba bo'ldi. Faqihlar qiyosni ishlatishda turli darajada edilar: ularning ichida eng peshqadamlari hanafiylar, ra'yga eng kam murojaat qilgan hanbaliylar, molikiy va shofeiylar ularning o'rtasida bo'ldi¹⁰.

Hanafiy mazhabining yirik markazlari sifatida Iroq, Xuroson va Movarounnahr hanafiyliigi ko'zga tashlana boshladi. Hanafiylik ilk marotaba VIII asr oxirgi choragida Xurosonning Marv va Balx shaharlarida deyarli bir vaqtda Abu Hanifaning shogirdlari tomonidan tarqatila boshladi¹¹.

Movarounnahr va Xurosonda VIII asrdayoq mahalliy aholi o'rtasida ko'psonli tarafdorlariga ega bo'lishga ulgurgan hanafiylikning mavqei yuqoriligi abbosiylarning bu mazhabga moyilligi bilan ham izohlanadi. Iroqda hokimiyat tepasiga kelgan abbosiylar avvalida Madina fiqh maktabiga moyillik bildirgan bo'lsalar, keyinchalik esa yangi poytaxt Bag'dodda hanafiylikni qo'llab-quvvatladilar. Xalifalik poytaxtida shakllangan bu vaziyat tolibi ilmlar yordami bilan tez fursatda Xurosonda ham o'z aksadosini berdi¹².

Fiqhiy nuqtayi nazardan Xurosonda hanafiy mazhabi keng tarqalgan edi. Chunonchi, Abu Bakr Voiz Balxiyning «Fadoil al-Balx» hanafiy ulamolari tabaqot kitobiga ko'ra, Balxdagi ilk abbosiylar davridagi barcha qozi va ulamolar yoki Abu Hanifaning yohud uning shogirdlari Abu Yusuf, Muhammad Shayboniy va Zufarning bevosita shogirdlari bo'lganlar. Demak, Balx ushbu mintaqada hanafiy mazhabining tarqalishida yetakchi o'rin tutgan¹³.

Dastlabki vaqtda Xurosonda hanafiyarlarga munosib raqobat qiladigan mazhab bo'lmadi. Shofeiylar mazhabi to' Abu Ibrohim Ismoil Muzaniy Misriyning (791-878) "al-Muxtasar al-Muzaniy fi furu' ash-shofeiyya" va Rabi' ibn Sulaymonning "al-Umm" asarlari IX asr yarmida Xurosonda tarqalmaguncha mintaqada o'rnasha olmadi. Shofeiylar mazhabini Misrda o'rganib kelgan to'rt nafar Muhammad ismli xurosonlik olimlarning biri – nishopurlik Muhammad ibn Nasr Marvaziy (vaf. 906-y.) asosan

⁹ Melchert C. The formation of Islamic law // The Formation of the Classical Islamic World 27. Aldershot: Ashgate, 2004. – Pp. 359-362.

¹⁰ Muhammad Hudariy. Tarix at-tashri' al-islamiy. – Qohira: Dar at-tavzi' va-n-nashr al-islamiyya, 2006. – B.162.

¹¹ Melchert C. The Spread of Hanafism to Khurasan and Transoxania'. Pages 13-30 in *Medieval Central Asia and the Persianate World*. Edited by A. C. S. Peacock & D. G. Tor. I. B. Tauris & BIPS Persian Studies Series 7. London: I. B. Tauris, 2015. – P.3.

¹² Melchert C. The Spread of Hanafism to Khurasan and Transoxania'. Pages 13-30 in *Medieval Central Asia and the Persianate World*. Edited by A. C. S. Peacock & D. G. Tor. I. B. Tauris & BIPS Persian Studies Series 7. London: I. B. Tauris, 2015. – P.15.

¹³ Radtke B. Teologi i mistiki v Xurasane i Transoksanii / Sufizm v Sentr. Azii (zarubejnye issledovaniya), Sankt Peterburg, 2001, – S. 56.

Samarqandda ta'lim bergani ma'lum. Shofeylik mazhabi bag'dodlik Abulabbos ibn Surayj (vaf. 918-y.)ning shogirdlari qaytib Xurosonga kelganlaridan keyin mintaqada barqaror rivojlana boshladi. Manbalarda o'zini molikiy mazhabi vakili hisoblagan birinchi xurosonlik – Ibrohim ibn Mahmud ibn Hamza (vaf. 911-y.) ismi uchraydi. U molikiyaning Xurosondagi shayxi sifatida zikr qilinib, mahalliy birorta izdoshi bo'lgani qayd etiladi. Kamsonli hanbaliylar ham mintaqada faoliyat yuritgan. Hatto bu mazhab vakillaridan XI asrda mintaqada Abdulloh Ansoriy kabi mashhur ulamolar ham yetishib chiqqan. Xurosonda IX asr oxirlariga qadar hanafiylikka mahalliy muqobil sifatida ba'zan yaqqol an'anaviylik ohangiga ega eski urfdagi eklektikizm namoyon bo'lgan edi¹⁴. Deyarli yuqoridagi kabi vaziyat Movarounnahrda ham yuzaga kelgan edi.

Balx X asr oxirigacha mintaqada hanafiylikning muhim markazi bo'lib kelgan bo'lsa, keyinchalik Movarounnahr bu masalada o'zib ketdi¹⁵.

Islomshunos olim A.Muminov XIV asrgacha Movarounnahr hanafiy mazhabi fiqhi tarixini to'rt davrga bo'ladi:

1. Shakllanish va rivojlanish (VII oxiri va X asrlar);
2. Klassik davr (XI-XII asrlar);
3. Postklassik davr (XIII asr boshi va 1270-yillar);
4. Parokandalik davri (XIII asr oxiri va XIV asr).

Yuqoridagi taqsimotga ko'ra, IX-X asrlarda fiqh ilmi asosan shakllanib bo'lgan edi.

Movarounnahrda hanafiy mazhabi ustuvor bo'lgani sababi, bir tomondan IX asrda bu yerda mahalliy fiqh maktabi shakllanishida mazhab asoschisining shogirdi Muhammad Shayboniyning shogirdi Ahmad ibn Hafs Abu Hafs Buxoriy (vaf. 832-y.) xizmatlari bo'lsa, ikkinchidan, mazkur mazhabning mezon va tamoyillari mahalliy shart-sharoitlarga ko'proq mos kelganligida edi¹⁶.

Somoniylar ham mintaqada hanafiylik rivojiga katta hissa qo'shganlar, binobarin, qozilik lavozimiga butunlay hanafiy ulamolari tayinlangan¹⁷. Shuningdek, somoniylar davrida madrasalar ham ko'p qurilib, u yerda hanafiy fiqhi o'qitilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Shunday madrasalar qatorida Abu Hafs Kabirning Buxorodagi madrasasi ham Movarounnahr va qo'shni davlatlar orasida hanafiy fiqhini yoyishda katta rol o'ynagan¹⁸.

Garchi tabaqot al-hanafiyya kitoblarida, xususan "Javahir al-mudiy'a" asarida Abu Hanifaning xos as'hoablari sirasida uch buxorolik qayd etilsada, ammo mazkur birinchi tabaqa shogirdlarga mintaqada

¹⁴ Melchert C. The Spread of Hanafism to Khurasan and Transoxania'. Pages 13-30 in *Medieval Central Asia and the Persianate World*. Edited by A. C. S. Peacock & D. G. Tor. I. B. Tauris & BIPS Persian Studies Series 7. London: I. B. Tauris, 2015. – P.13.

¹⁵ Melchert C. The Spread of Hanafism to Khurasan and Transoxania'. Pages 13-30 in *Medieval Central Asia and the Persianate World*. Edited by A. C. S. Peacock & D. G. Tor. I. B. Tauris & BIPS Persian Studies Series 7. London: I. B. Tauris, 2015. – P.11.

¹⁶ Qoriyev O. Farg'ona fiqh maktabi va Burhonuddin al-Marg'inoniy. – Toshkent: Fan, 2009. –B.22.

¹⁷ Aminov H., Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – B. 64.

¹⁸ Asrorova L. Abu Hafs Kabir Buxoriy va hanafiy fiqhi. – Toshkent: O'zXIA NMB, 2021. – B. 97.

hanafiylik an'analarini yo'lga qo'yish nasib etmadi¹⁹. Bu ishni ikkinchi tabaqa vakili Ahmad ibn Hafs Abu Hafs Buxoriy (vaf. 832-y.) amalga oshirdi.

Buxoro faqihlari tomonidan usul va furu', kalom ilmi bo'yicha yozilgan keng qamrovli asarlar, hanafiy fiqh maktabi rivojida muhim o'rin tutib, Buxoroni Movarounnahr atoqli faqihlarining faoliyat markaziga aylantirgan. Samarqandda ham IX-X asrlarda kalom ilmidan tashqari usul al-fiqh sohasida ham ilmiy ahamiyatga ega asarlar yozildi²⁰. Usul al-fiqh bo'yicha hanafiy mazhabida yozilgan eng mashhur asarlar Markaziy osiyolik olimlar qalamiga mansub hisoblanadi²¹.

Samarqandda hanafiylikning tarqalishiga Abu Sulaymon Juzjoniy (vaf. 816-y.dan keyin)ning shogirdi Abu Bakr Juzjoniy (vaf. IX asr) katta hissa qo'shgan. Uning davrida Muhammad Shayboniyning asarlari rivoyat qilinishi barqarorlik kasb etdi. Shu bilan birga ayni shu davrda ahl al-hadis va hanafiylik o'rtasida munosabatlar keskinlashib ketdi²². Hattoki Buxoroda IX asr o'rtalarida ahl al-hadis faollashib qolganini kuzatish mumkin. Ular boshqa mahalliy maktablarga keskin va qat'iy munosabat bildirdilar. Jumladan, ra'y metodi bilan chiqarilgan hukmlarni dindan tashqari, deb baholadilar. Ra'y, urfga tayangan ulamolarni "ahl al-ahvo" (havoyi nafsigaga ergashganlar) deb atadilar. Ahl al-hadis Markaziy Osiyodagi Iroq huquqiy maktabining mahalliy vakillariga ratsionalizm, aqidaga oid qarashlari hamda ibodatdagi farqlar bo'yicha o'z ta'nalarini bildirgan edilar²³.

Mahalliy hanafiy maktabi vakilari hammasi ham ayrim fiqhiy va aqidaviy masalalarda yagona qarashga ega bo'lmagan. Ba'zi fiqhiy asarlar, xususan fatvo janrida yozilgan asarlarda "Buxoro faqihlari", "Samarqand ulamolari", "Xorazm ahli faqihlari" kabi iboralar uchraydi²⁴. Buxoro hanafiyolari Bag'dod muhitidan, Samarqand hanafiyolari esa Balx ulamolaridan ko'proq ta'sirlanar edilar²⁵.

Abu Mansur Moturidiy (vaf. 944-y.) Abu Hanifa e'tiqodiy qarashlarini rivojlantirib, aqidada moturidiya mazhabi o'laroq, Movarounnahrda hanafiylikning mustahkam o'rin olishiga hissa qo'shdi. Bu o'lkada hanafiylik bir necha asr mobaynida kuchli tomir otib, butun dunyoga hanafiylikning buyuk imomlari va faqihlari hamda yirik va muhim manbalarini taqdim qildi²⁶.

Tarixdan ma'lumki, Termiz qadimdan madaniy markazlardan biri bo'lib, ko'plab buyuk allomalarni voyaga yetkazgan shahardir. Termiz shahri geografik joylashuviga ko'ra Xuroson hududiga chegaradosh bo'lib, Balx shahriga yaqin bo'lgan. Shuning uchun ham Xuroson va ayniqsa, Balxda kechgan siyosiy, madaniy, ilmiy jarayonlar Termizga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Muhimi, Termiz Movarounnahrning Buxoro va Samarqand kabi shaharlarini butun sharqda ilmiy-madaniy markaz sifatida shuhrat qozongan Balx shahri bilan bog'lab turgan. Islomiy mazhab va o'qimlardan tashqari mintaqada yahudiylik, nasroniylik, moniylik, majusiylik, buddaviylik dini vakillari yonma-yon hayot kechirganlar.

¹⁹ Muminov A. Xanafitskiy mazhab v istorii Sentralnoy Azii. – Almaty: Qazaq ensiklopediyasi, 2015. – S. 106.

²⁰ Jo'zjoniy A. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. – Toshkent: TIU, 2002. – B.177.

²¹ Qarang: Aminov H., Muhammadaminov S. Abu Hafs an-Nasafiyning "Tahsil usul al-fiqh" asari nashriga kirish qismi. – Toshkent: Noshir, 2015. – B. 9.

²² Muminov A. Xanafitskiy mazhab v istorii Sentralnoy Azii. – Almaty: Qazaq ensiklopediyasi, 2015. – S. 125.

²³ Muminov A. Xanafitskiy mazhab v istorii Sentralnoy Azii. – Almaty: Qazaq ensiklopediyasi, 2015. – S. 111.

²⁴ Asrorova L. Abu Hafs Kabir Buxoriy va hanafiy fiqhi. – Toshkent: O'zXIA NMB, 2021. – B. 88.

²⁵ Muminov A. Xanafitskiy mazhab v istorii Sentralnoy Azii. – Almaty: Qazaq ensiklopediyasi, 2015. – S. 145.

²⁶ Aminov H., Primov S. Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – B. 57-58.

Hakim Termiziy tavallud topgan Termiz shahri mana shu mintaqaning markazida joylashganligi bois ham, bu shahar ushbu ulkan mintaqaning barcha diniy oqimlari, aqidalari, elatlari madaniyatining kesishuv joyi hisoblangan.

Termizlik alloma Hakim Termiziyning hayoti va ijodi Balx muhiti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Hakim Termiziy va uning otasi Balxning hanafiy ulamolaridan ko'plab hadislar rivoyat qilganlar²⁷. "Fazoil-i Balx" hanafiy faqihlar tabaqot asarida keltirilgan balxlik ulamolardan Hakim Termiziyning otasi – Ali ibn Hasan Termiziy hadis rivoyat qilgan: Balx qozisi bo'lgan Shaddod ibn Hakim (vaf. 829-y.), Makkiy ibn Ibrohim (vaf. 830-y.). Hakim Termiziyning o'zi ham Fazoil-i Balxda keltirilgan Qutayba ibn Said (vaf. 854-y.), Muhammad ibn Qodi Abu Muti' (vaf. 858-y.), Muhammad ibn Aban (vaf. 858-y.)lardan hadis rivoyat qilgan, Ahmad ibn Xizruya (vaf. 854-y.) bilan yaqin aloqada bo'lgan²⁸.

Hakim Termiziy yoshligidan hanafiylik ta'limotini o'rgangan. Bu haqda o'zining avtobiografik asari "Buduvv (yoki "Bad'u sha'n") sha'n"da qayd etadi: "Mening ishimning boshi shu bo'ldiki, Alloh sakkiz yoshga yetganimda shayximni peshanamga bitdi. U ilm olishga yo'llar, o'zi ta'lim berar, ta'lim olishga undar edi. Shu holatni u og'ir va yengil damlarda ham g'ayrat qilib ushladi-ki, bu mashg'ulot odatimga aylandi va bolaligimda o'yingohning o'rmini bosdi. U o'spirinlik vaqtimda ilm al-osor va ilm ar-ra'y jamlab (ta'lim) berdi"²⁹. Matndagi "ilm ar-ra'y" atamasi o'sha vaqtda mintaqada ustuvor bo'lgan hanafiy fiqhiga dalolat qilgan³⁰. Garchi, Termiziy alohida qayd etmasada, uning shu birinchi ustoz o'z otasi bo'lsa kerak. Otasi Ali ibn Hasan Termiziy muhaddis bo'lib, islom markazlariga safar qilgan, Bag'dodda hadis eshitgan, hadis roviysi sifatida Hakim Termiziy rivoyatlarida qayd etilgan³¹.

Abulhasan Jullabiy Ali Hujviriyy (vaf.1073-77 y.) o'zining «Kashf al-mahjub» asarida: «Al-Hakim fiqhni Abu Hanifaning xos as'hoblaridan birining qo'lida o'rgandi»³², – deb yozadi. Ibn Arabiy (1165-1240) ham o'zining «al-Futuhot al-Makkiya» asarida Termiziyning hanafiy mazhabida ekanligini zikr qilib, Hujviriyyning ushbu ma'lumotini tasdiqlaydi. Ma'lumki, Ibn Arabiy Hakim Termiziydan ancha keyin yashagan bo'lsada, uning asarlari bilan juda yaqindan tanish bo'lgan³³. Hakim Termiziyning hanafiylik aqidasi bo'lganligini o'zining «Bayon al-farq» asarida imon haqida keltirgan fikrlari ham tasdiqlaydi. Chunonchi u shunday yozadi: «Imon jumhur ulamolar nazdida va shariatga ko'ra Haqni

²⁷ Radtke B. Teologi i mistiki v Xurasane i Transosanii / Sufizm v Sentr. Azii (zarubejnye issledovaniya), Sankt Peterburg, 2001. – S. 76.

²⁸ Radtke B. Teologi i mistiki v Xurasane i Transoksanii / Sufizm v Sentr. Azii (zarubejnye issledovaniya), Sankt Peterburg, 2001. – S. 40-56.

²⁹ Hakim Termiziy. Buduvv ash-sha'n / Muhammad Mas'ud nashrga tayyorlagan. // Islamic Studies jurnali. № 4, Islomobod, 1965. – B. 331.

³⁰ Radtke B., John O'Kane. The Concept of Sainthood in Early Islamic Mysticism. – London: Curzon Press, 1996. – P.15.

³¹ Radtke B., John O'Kane. The Concept of Sainthood in Early Islamic Mysticism. – London: Curzon Press, 1996. – P.1.

³² Hujviriyy Abulhasan. Kashf al-mahjub. – Qohira: Dor ar-rayyon li-t-turos, 1988. – B. 353.

³³ Qarang: Usmonov I. Al-Hakim at-Termiziy ta'limotining Ibn al-Arabiy qarashlariga ta'siri // Imom al-Buxoriy saboqlari. – 2003. – № 4. – B. 183-186.

tasdiq etish, qalb bilan qabul qilish va til bilan tasdiqlashdir³⁴. Imon o'z zotiga ko'ra quyosh kabi noqis bo'lmaydi (kamaymaydi), lekin xuddi quyosh nurining tafti havoda bulut, tuman, qattiq issiq yoki qattiq sovuq turganda kamroq bo'lgani kabi imon nurining tafti ham ba'zi sabablarga ko'ra kamayadi³⁵. Ushbu qarashlar Abu Hanifaning «al-Fiqh al-akbar» asaridagi eng asosiy mavzulardan hisoblangan imon haqidagi 22-bandiga to'liq muvofiq keladi³⁶. Hakim Termiziy «Navodir al-usul»ning 88-bobida Alloh taolo musulmon ummatiga Qur'on va sunnada topa olmagan masalalarida ra'yda ijthod (*al-ijthod fi-r-ra'y*) qilishlari uchun yo'llarini oson qilib qo'yganini ta'kidlaydi³⁷. Shuningdek, Termiziy haqiqiy ra'yni juda yuqori sifatlar bilan tavsiflaydi: «Ra'y – tasarrufotida shahvatlari so'ngan, nodonlik tutunlari tarqagan, yengiltakligi ketgan odamda bo'ladi. U o'z aqli bilan ishlarning tadbirini qiladi. Aql boshda, bosh miyada... Tadbir – bo'ladigan hamma ishlarni baholay olishdir. So'ngra aql nuri bilan ishlarning bo'lajak natijasiga nigoh tashlamoqdir³⁸. Termiziyning aqlning bosh miyada joylashgani haqidagi qarashlari Abu Hanifaga muvofiq kelib, «aql qallda» deydigan shofeylarga zid keladi.

Shuningdek, «Navodir al-usul»da Abu Hanifaning ba'zi qavllari rivoyat qilib keltirilishi³⁹, Hakim Termiziyning eng yaqin shogirdi Abu Bakr Varroq Termiziy (vaf. 906-907-y.) hanafiy ulamolari tabaqot asarida zikr etilishi⁴⁰ ham ushbu ma'lumotlarni yana bir bor tasdiqlaydi. Lekin shu bilan birga Tojuddin Subkiy (vaf. 1370-y.) Hakim Termiziyning shofey ulamolar sirasida zikr etadi⁴¹. Tarixchi Muhammad Muqaddasiyning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra mintaqada shofey mazhabi vakillari Shosh, Iylon, Tus, Niso, Abiverd, Taroz, Buxoro atroflarida, Sanj, Domg'on, Isfara va Jubonda istiqomat qilgan⁴². Ehtimol, Hakim Termiziy ikkala mazhab fiqhi bilan tanish bo'lgan bo'lsa kerak. Chunki mintaqada bu ikki mazhab o'rtasidagi bo'lib o'tgan munozarlar haqida tarix kitoblarida ko'plab ma'lumotlar yetib kelgan⁴³. Ushbu tortishuvlar muhitida yashagan alloma ikkala mazhabni ham mukammal o'rgangan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Mintaqada shofey mazhabining tarqalgani hamda Hakim Termiziy tomonidan ahl ar-ra'y ta'limotining ayrim jihatlari tanqid qilinishi, ayrim asarlarida ahl al-hadisga moyil bo'lib ko'rinishi kabi omillar Subkiyning o'z asarida Hakim Termiziyning shofey ulamolar qatorida qayd etishga undagan bo'lishi mumkin. Zero, Hakim Termiziy ahl ar-ra'yning fiqhdagi *qiyos* uslubini tanqid qiladi. Lekin shu bilan birga uning nazdidagi *sahih qiyos* to'g'ri hukm chiqarishga olib boruvchi eng ishonchli yo'l ekanligini ham zikr etadi. Hakim Termiziy «al-Furuq», «al-Masoil al-maknuna», «al-Akyos va-l-mug'tarrin» asarlarida Abu Hanifaning fiqhiy masalalarda qiyos vositasida chiqargan ba'zi hukmlarini tahlil va tanqid qilib, o'z nazdidagi haqiqiy qiyos orqali chiqarilgan hukm qanday bo'lishi kerakligini izohlab beradi. Hakim Termiziyga ko'ra haqiqiy qiyos – botiniy tomonlarni, masalalarning ichki mohiyatini hisobga olgan holda juz'iy masalalarni usulga qiyos qilishdir. Shuningdek, Hakim Termiziy

³⁴ Al-Hakim at-Tyermiziy. Bayon al-farq bayn as-sadr va-l-qalb va-l-fuad va-l-lubb. / Nikolas Hir nashrga tayyorlagan. – Qohira: Maktabat kulliyot al-azhariyya, 1958. – B. 44.

³⁵ Al-Hakim at-Tyermiziy. Bayon al-farq bayn as-sadr va-l-qalb va-l-fuad va-l-lubb. – B. 60.

³⁶ Qarang: Abu Hanifa Nu'mon. Al-Fiqh al-akbar / S.M.Oltinxon To'ra tarjimasini. – T.: Adolat, 2003. – B. 52.

³⁷ Al-Hakim at-Tyermiziy. Navodir al-usul. T. I. B. 532.

³⁸ Al-Hakim at-Termiziy. Al-Furuq va man' at-taroduf. – Ajuza: Maktaba al-Iman, 2005. – B.206.

³⁹ Qarang: Al-Hakim at-Tyermiziy. O'sha asar. T. I. B. 214.

⁴⁰ Qarang: Laknaviy. Favoid al-bahiyya fi tarajum al-hanafiyya. – Bayrut: Dor al-Arqum, 1998. – B. 52-53.

⁴¹ Tojuddin as-Subkiy. Tabaqot ash-shofeyiyya al-kubro. 6 tomlik / Mustafu Ahmad Ato nashrga tayyorlagan. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1999. T. I. B. 449.

⁴² To'liqroq ma'lumot uchun qarang: Al-Muqaddasiy. Ahsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim. – B. 322-323.

⁴³ Qarang: Muhammad al-Xudariy Bek. Ta'rix at-tashri' al-islomiy. – Bayrut: Dor al-qalam, 1983. – B. 248-249.

Abu Hanifa va uning xos shogirdlari – Abu Yusuf, Zufar, Muhammad ibn Hasanlarning minglab jildli kitoblari oxirat kuni, jannat va do‘zax vasfi, qiyomat tavsifi, amallarning oxiratdagi vazni, yaxshi xulq, Rasululloh (s.a.v.)ning axloqlari va shamoillari, sahobiyning siyratlari, Allohning bandalariga ato etgan ne‘matlari, Qur‘onning hikmatlari, yashirin ma‘nolari, uning ajoyibotlaridan xoli ekanini, ushbu kitoblarda faqat nafs kirdikorlari uchun qanday hukm bo‘lishi, ularga nima halol va nima haromligi bayon qilish bilan cheklanganini tanqid qiladi⁴⁴.

Ammo shuni qayd etish kerakki, Imom Shofey ham *qiyos* qilganda masalaning botiniy tomoniga e‘tibor bermasdan faqat zohirga tayanish kerakligini “ar-Risola” asarida ta‘kidlab aytgan⁴⁵. Bu masalalarda ham Hakim Termiziyning shofey mazhabiga hamfikir bo‘lmagan.

Keyingi davr hanafiy mazhabi mashhur faqih Abu Zayd Dabusi (vaf.1039-y.) qarashlarida ham Hakim Termiziyning qiyos va fiqhga bo‘lgan bu tarzda munosabatiga hamnafaslik sezilib turadi. Zero, «Taqvim al-adilla» asarida Abu Zayd Dabusi ham qiyos va fiqh – masalalarning ichki mazmun va ma‘nolarini ham qamrab olishini aytib o‘tgan⁴⁶. Bu holat *fiqh*ni o‘ziga xos tarzda tushinishda Hakim Termiziy yolg‘iz bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Hakim Termiziyning ergashgan mazhabi haqida xorijiy mutaxassislar ham fikr yuritganlar. Jumladan, marokashlik Xolid Zahriy mazkur masalada ikki xil xulosa beradi: 1) Hakim Termiziy mujtahidi mutlaq edi, o‘zi mustaqil mazhabi sohibi bo‘lgan, keyinchalik mazhabi yo‘qolib ketgan; 2) mazhabda mutaassib bo‘lmagan, boshqa mazhablardan dalili kuchli deb hisoblasa olgan. Dalilsiz ergashishni rad etgan⁴⁷.

Fariduddin Attor esa “Tazkirat al-avliyo” asarida Hakim Termiziy va uning fiqhiy mazhabi haqida: “Rabboniy olim, mujtahid bo‘lgan, biror mazhab sohiblariga ergashmagan (g‘oyru muqallid), asror va hikmatlarni kashf etgan, shuning uchun “avliyolar hakimi” deb atalgan”⁴⁸, mazmunidagi munozarali mulohazani bildirgan.

NATIJARLAR

Hakim Termiziy e‘tibor qaratgan asosiy mavzulardan biri – ibodat marosimlarining ruhiy jihatlaridir. Keyingi davr hanafiy olim Ibn Adim (vaf. 1262-y.) o‘zining “al-Malhama” asarida Hakim Termiziyning “shariat ilmiga ko‘pchilik ulamolarda uchramagan narsalarni kiritgani uchun ko‘zga ko‘ringan faqih va sufiylar tanqid qilgani”ni qayd etgan⁴⁹.

“Al-Masoil al-maknuna” asarida Hakim Termiziy ahl ar-ra‘y va ahl al-hadis farqini bayon qilishga alohida bo‘lim bag‘ishlaydi. Termiziy bu o‘rinda birinchi qarashda ahl al-hadisga ko‘proq moyildek tuyuladi: “Ahl ar-ra‘y ulomalarining asarlarida oxirat, jannat va do‘zax vasfi, o‘lim, barzax, qiyomat dahshatlari, hisob shiddati, ingichka pulsirotdan o‘tib olish, amallar sarhisobi, qo‘rquvda turganlar holati, mushoq bandalar shavqi, Allohni bilgan ulamolarning qo‘rquvi, taqvodor va parhezkorlar sifati, zohidlar va

⁴⁴ Baraka A. Al-Hakim at-Tirmiziy va nazaryyatuhu fi-l-vilaya. 2 tomlik. – Qohira: Majma‘ al-buhus al-islomiyya, 1971. T.1 – B. 84-103.

⁴⁵ Qarang: Muhammad Abu Zahra. Ash-Shofi‘iy. – Qohira: Dor al-fikr al-‘arabiy, 1996. – B. 241-258.

⁴⁶ Qarang: Abu Zayd ad-Dabusi. Taqvim al-adilla. A.Juzjoniy tarj.// Imom al-Buxoriy saboqlari. – 2005. – № 2-3. – B. 108-109.

⁴⁷ Zahriy, Xolid. Hakim Xuroson va anis az-zamon. – Rabot: Markaz ad-dirosot va-l-abhos, 2013. –B. 51-55.

⁴⁸ Fariduddin Attor. Tazkirat al-avliyo. – Damashq, 2008. – B. 621.

⁴⁹ Melchert C. The concluding salutation in Islamic ritual prayer // Le Museon, 114. 2001. – Pp. 403-404.

Allohga intilganlar holati, dindagi manzillar, havoyi nafs va shayton kirdikorlari, ziyraklar va kekkayganlar ahvoli, Qur'on hikmatlari, botini va ajoyibotlari, mukarram insonlarning dindagi axloqi, Rasululloh (s.a.v.) xulqlari, yurish-turishlari, sahobiyalar xulqi, ularning Rasululloh (a.s.)dan keyingi siyratlari, Alloh uchun fidoiyligi, jiddu jahdlari, ixlos va vafolari, oldingi ummatlar va ularga berilgan narsalar xabarlari, musulmon ummatining ulardan afzal qilingani, Allohning ne'matlari, Uning tadbirlari, dunyo va uning ziynatining aldab qo'yishi, Bani Isroil xabarlari, ularga tushirilgan kitob ajoyibotlari, ularning oqibatlarini va musulmonlarga nima uchun karomatlar berilgani haqida hech narsa yozilmagan⁵⁰, deb qayd etadi. Ahl al-hadisni esa, ijobiy baholab, "Ahl al-hadisning quloqlariga bu xabarlar ko'p kirgan, nafslarigacha yetib borgan, xohlasa-xohlamasa ham. Nafsini zabun qilgan, popugini pasaytirgan"⁵¹ – deb tavsiflagan.

Shu sababli Termiziy o'z asarlarini ta'lif etishda mazkur masalalarni o'z asarlariga kiritib ketgan. Zero, tadqiqotchilar Termiziyning aksar kitoblari birinchi qarashda tasavvufiy bo'lib ko'rinsada, aslida fiqhiiy asarlar ekanini, ammo uslubi an'anaviy faqihlarnikidan farqli bo'lganini qayd etadilar⁵². Binobarin, Termiziy "al-Akyos va-l-mug'tarrun" asarida fiqhning botiniy jihatlarni ham qamrab olishini bayon qilib, uni shunday deydi: "Shariat yo'llari tana a'zolari ustida bo'ladi, bu yo'l esa qalblar bilan bo'ladi, yo'lgi esa nafslar ustidan o'tadi. Bunda qalb shahvatlardan saqlanish uchun buyuk himoya – Allohdan panoh tilashga muhtoj bo'ladi"⁵³.

Boshqa asarlarida hadislarning isnodlarini yodlash bilan cheklanib, ma'noga e'tibor bermaydigan muhaddislar haqida: "Ular isnodlarini, rivoyat yo'llarini yodlaydilar, roviylarni tahlil qilish, ularning illatlarini topishga zo'r beradilar. Lekin hadislarning ma'nolari, lafzlari ularning diqqat e'tiboridan chetda qoldi. Qanchalab hadislarning so'zlari o'zgarib ketishi oqibatida ularning asosiy ma'nosi ham o'zgarib ketdi. Ular bunga e'tibor bermadilar, ular buni tadqiq etishdan ko'ra roviylarning tanqidi bilan ovora bo'ldilar"⁵⁴, – deb yozadi. Hakim Termiziyning hadis rivoyatida ko'plab muhaddislarining uslubidan farq qiladigan yo'lni tutgan edi: hadislarni faqat rivoyat qilib qo'yish uchun keltirmagan, hadislarning chuqur ma'nosi va hikmatini anglash uchun rivoyat qilgan, asosiy maqsad bir roviydan ikkinchisiga yetkazish bo'lmagan, hadis ma'nolaridan foyda olib, uning foydasini bayon qilish uchun boshqa hadis va asarlarni jalb qilgan⁵⁵. Termiziy "al-Furuq va man' at-Taroduf" asarida muhaddislarni bir necha toifaga ajratib, ularni o'zaro qiyoslaydi. Jumladan, asarning "Xabarlarini rivoyat qiluvchi muaddiy (ado etuvchi) va noqil (yetkazuvchi) farqi" nomli bo'limida, "muaddiy ixlos va omonatdorlikka tanilgan, o'zi amal qiladigan hidoyatdagi imomlardan Payg'ambar (a.s.) xabarlarini, sunnatlarini, shariat sharhini eshitadi, (sanad) roviylarini saralaydi, matnni tadqiq qiladi", deb maqtaydi. "Naqqolun esa, sanadlarni keltiradilar, rivoyat yo'llarini yodlaydilar, bor vaqti shu bilan band bo'lib hadislarning ma'nolariga qaramaydilar.

⁵⁰ Hakim Termiziy. Al-Masoil al-maknuna / M.Juyushiy nashri. – Qohira: Dor at-turos al-arabiy, 1980. – B.46

⁵¹ Hakim Termiziy. Al-Masoil al-maknuna / M.Juyushiy nashri. – Qohira: Dor at-turos al-arabiy, 1980. – B.48

⁵² Baraka A.Al-Hakim at-Termiziy va nazariyyatuhu fi-l-vilaya. – Qohira: Maktaba Vahba, 2014. – B. 96.

⁵³ Hakim Termiziy. Taboi' an-nufus yoki al-Akyos va-l-mug'tarrun. – Qohira: al-Maktab as-saqofiy, 1989. – B.108.

⁵⁴ Komil Avayda. Al-Hakim at-Tirmiziy al-faqih an-noqid. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1993. – B. 52.

⁵⁵ Al-Hakim at-Termiziy va nazariyyatuhu fi-l-vilaya. – Qohira: Maktaba Vahba, 2014. –B. 78.

Ularning e'tibori sanad va rivoyat yo'llarida"⁵⁶ deb tanqid qiladi. Mana shu tavsifda ahl al-hadis va ahl al-ra'yning hadislarga munosabatidagi farqqa ishora bor. Zero, muhaddislar hadisga yondashuvni ikkiga ajratadilar: fiqhiy uslub va hadis uslubi. Fiqhiy uslubda hanafiyalar peshqadam bo'lsa, keyingisida ahl al-hadis ustun bo'lgan. Bu farq "hadislarni qabul qilish yoki rad etish"ni bilishda namoyon bo'ladi. Chunki bu masalada ikki yo'nalishning maqsadi farqlanadi. Hadis uslubi hadisning nisbat berilishi to'g'riligi yoki noto'g'riligini bilishni maqsad qilsa, fiqh uslubi amal qilish yoki qilmaslikni bilishni nazarda tutadi⁵⁷.

Mazkur asarning "Riyoqa qiluvchilar va roviylar farqi" nomli bo'limida esa, hidoyatdagi ishonchli imomlardan hadislarni eshitib, uning riyosini qilganlarni maqtaydi. Uning riyosi esa, ma'nolarini kashf etish, zohirini botiniga aylantirib ta'vil ma'nolarini izlash, ekanini aytadi. Roviylarni esa sanad, hadislarni qayd etish va yodlash bilan cheklanib qolib, hadislarning ma'nosi, nosix va mansuxi, om va xosi, ta'vil qilish o'rinlarini chetda qoldirishlarini tanqid qiladi⁵⁸.

Hakim Termiziy o'z asarlarida, xususan "al-Akyos va-l-mug'tarrun" asarida ilmni uchga ajratadi: Halol va harom ilmi, hikmat ilmi, ma'rifat ya'ni oliy hikmat ilmi. Harom va halol ilmi ulamolari juda xatarli va mas'uliyatli o'rinda ekanini aytib, ularni ikki turkumga ajratadi: "Ularning biri xabarlarini yetkazadilar, lekin istinbot quvvatiga ega emaslar. Ulardan keladigan xabarlarini va odamlar uchun fatvolarni fiqhsiz olish mumkin emas. Zero hadislarning nosix mansuxi, xos va om, ta'vil talabi, sobit bo'lgani va sobit bo'lmagani bor. Ularning (ulamolarning) orasiga dinning sho'ri bo'lgan yomon roviylar aralashib, yolg'on hadislarni rivoyat qildilar. Ulardan keladigan xatar kattadir, zero rivoyatlari guvohlik sifatida olinishi mumkin. Shuning uchun ham Alloh taolo: **Sizlar rozi bo'ladigan (adolatli) guvohlardan guvoh qilinglar** (Baqara, 282), deb marhamat qildi.

Rasul (s.a.v.)ning din borasidagi hadislari adolatli, rozi bo'linganlardan keltirilsagina qabul qilinadi. Ularda om va xos, nosix mansux, so'z ma'nolari tushunish ilmi yo'q. Xabar (hadislarni) anglamagan Qur'onni tushunishda undan ham bilimsizroq bo'ladi. Ularda ilm belgilari bor, lekin ular ulamo emas, lekin o'zidan keyingilarga xadislarni yetkazib beruvchilardir.

Ikkinchi turkum ulamolari bu masalalarda (hadislarda) fiqhni o'zlashtirdilar, tadabbur qildilar, ma'nolarini izladilar, nosix va mansuxini ajratdilar, so'zlarini tadqiq qildilar, bir harf bilan ma'no o'zgarib ketishini bilib, istinbot qildilar, far'ni aslga qiyos qildilar, ra'yda ijti-hod qilish uchun Qur'on va sunnada izn berilgan edi.

Bu ikki turkum ham o'z faoliyatlarida katta xatardadirlar, zero ularning birortasi o'z fikridan har qanday dalil bo'lsa ham qayta olmaydi: ulardan biri ra'y bilan ijti-hod qilishga, boshqasi (hadisning) ado etilishiga muhtalo bo'lgan. (Masalalarning) haqiqatiga yetishlari uchun hadislarni ado etish ahli (ahl al-ado) ixlos, tadqiq etish, roviylarni aniqlash, ma'nolarni o'zgartirishga olib keladigan lafzlarni almashtirishdan saqlanishga muhtoj bo'lsalar, ra'yda ijti-hod va istinbot ahli esa Alloh va Uning bandalari o'rtasiga tushib qolmasliklari uchun Allohning nuri bilan jilolangan toza qalb, yomon axloq hamda

⁵⁶ Al-Hakim at-Termiziy. Al-Furuq va man' at-taroduf. – Ajuza: Maktaba al-Iman, 2005. –B.212.

⁵⁷ Adnon Ali Xidr. Muvozana bayna manhaj al-hanafiyya va manhaj al-muhaddisin. – Damashq: Dar an-navadir, 2008. – B. 86-94.

⁵⁸ Al-Hakim at-Termiziy. Al-Furuq va man' at-taroduf. – Ajuza: Maktaba al-Iman, 2005. –B.158.

dunyoga shahvat iflosliklaridan pok bo'lgan nafsga ehtiyojmanddirlar. Fatvixonlar o'z chiqargan fatvolari bilan Allohga bandalik qiladilar. Qiyomat kuni ularga "qayerdan olib aytganding bu (fatvo)larni, bandalarim shularga ergashib Menga bandalik qilgan edilar", deyiladi. Shuning uchun ham Sufyon Savriy rahimahulloh "qani endi qo'lim uzilib tushib, shu ilmni talab qilmasam edi", degan ekan. Bu uning bilimsizlikni istagani uchun emas, balki chiqargan fatvolaridan qo'rquv oqibatida aytilgan edi"⁵⁹. Hakim Termiziy shu o'rinda fatvo chiqarishdan qo'rqib shu zaylda gapirgan tobeiyulardan Ibrohim Naxaiy, Abdurahmon ibn Abu Laylo hamda mashhur hanafiy faqih Xalaf ibn Ayyubning gaplarini ham keltiradi.

Hakim Termiziy ahl al-hadislarga qarata shunday deydi: Rasululloh (s.a.v.)dan "Kim mening nomimdan qasddan yolg'on to'qisa, do'zaxdan joyini olaversin" degan hadis ularga joriy bo'ladi. Boshqa hadisda Rasululloh (a.s.) marhamat qildilar: "Mendan rivoyat qilgan narsangiz Allohning Kitobiga muvofiq kelmasa, demak u mendan emas". Yana aytdilarki, "Mendan eshitgan narsasini eshitganidek ado etganga Allohning rahmati bo'lsin. Ehtimol fiqh tashuvchi faqih emasdir, ehtimol o'zidan faqihroqqa yetkazar". Shu ikki turkum ulamolariga (yuqoridagilarni) bayon qilganimizdan keyin ham qanday qilib bu kabi g'ururga olib boradigan narsalarda xursandchilik tatishi mumkin. Gapning po'stkallasi shuki, qiyomat kuni hammalari shu narsalardan yiroq bo'lganimda edi, deb afsusda qoladilar⁶⁰. Shundan so'ng Termiziy dunyo, rahbarlik, obro'-e'tibor, kibr, maqtanish talabida ilm istaganlarni qattiq tanqid qilib, Payg'ambar (a.s.)dan "Kimki, ulamolar bilan tortishish, maqtanish, tentaklar bilan tenglashish uchun ilm olsa, jannat hidini hidlamaydi. Uning hidi esa 500-yillik masofadan kelib turadi" hadislari bilan ogohlantiradi⁶¹.

XULOSA

Hakim Termiziy o'z asarlarida Abu Hanifaning ayrim fiqhiy qarashlariga nisbatan zid munosabat bildirsada, ammo boshqa yirik hanafiy ulamolar bilan fikri uyg'un keladi. Masalan, "Isbat al-ilal" asarida "Imom ortida jahriy namozga ergashgan namozxon jim turishini ixtiyor qildik, qiroati maxfiy namozda esa, nafs va'zdan o'z nasibasini olishi uchun qiroat qilinishi bizga mahubbroq. Agar namozxon (qiroati maxfiy namozda) qiroat bilan birga tafakkur qilsa, bu holat faqatgina tafakkurga berilib, qiroatni tark qilishidan yaxshiroq"⁶², deydi. Hakim Termiziy mazkur masalada Abu Hafs Kabirga yaqin yo'lni tutgan. Zero, jahriy o'qilmaydigan namozda imomning ortida qiroat qilish makruh emasligiga Abu Hafs Kabir ham qo'shilgan, garchi Abu Hanifa va Abu Yusuf nazdida makruh bo'lsa ham. "Xulosa al-fatovo"da shunday kelgan⁶³.

Hakim Termiziy fiqhga oid qarashlari shakllanishiga o'z mintaqasida faoliyat yuritgan ikki katta yo'nalish – ahl ar-ra'y va ahl al-hadisning ta'siri bo'lgan. Yoshligidanoq ilm al-osor va ilm ar-ra'y bo'yicha tahsil olgan Termiziy bu yo'nalishlarning asoslari bilan barvaqt tanishishga muvassar bo'lgan.

⁵⁹ Hakim Termiziy. *Taboi' an-nufus yoki al-Akyos va-l-mug'tarrun*. – Qohira: al-Maktab as-saqofiy, 1989. – B.109-110.

⁶⁰ Hakim Termiziy. *Taboi' an-nufus yoki al-Akyos va-l-mug'tarrun*. – Qohira: al-Maktab as-saqofiy, 1989. – B.110.

⁶¹ Qarang: Hakim Termiziy. *Taboi' an-nufus yoki al-Akyos va-l-mug'tarrun*. – Qohira: al-Maktab as-saqofiy, 1989. – B.110.

⁶² Hakim Termiziy. *Isbat al-ilal*. – Kasablanka: an-Najah al-jadida, 1998. –B.102.

⁶³ Qarang: Asrorova L. *Abu Hafs Kabir Buxoriy va hanafiy fiqhi*. – Toshkent: O'zXIA NMB, 2021. –B.199.

Bilimi ortib borishi barobarida ahl ar-ra'y va ahl al-hadisning hukm chiqarish uslubiyatlarini chuqur o'rganib, tahlil qilgan. Har biri bo'yicha o'z xulosalarini bergan. Hakim Termiziyning aqidaviy qarashlari hanafiylik doirasida bo'lgan. U ahl ar-ra'y va ahl al-hadis fiqhini ajratgan. Ahl ar-ra'y uslubiyatidagi qiyosning ahamiyatini ta'kidlagan holda, uni to'g'ri qo'llash bo'yicha o'z talqinini taqdim etgan. Ahl al-hadisni esa harfiy yondashuvdan chetlashish, diniy matnlarning hikmati va murodini anglash orqali hukm chiqarishga chaqirgan.